

Yusupova Dilnavoz Rahmonovna, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbek adabiyoti va mumtoz adabiyot kafedrasini professori.

Hoshimova Osiyo Xikmatilla qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
2-bosqich magistranti
osiyohoshimova1999@gmail.com

RUSTAM MIRVOHID G‘AZALLARINING TIL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy adabiyotimizda g‘azal janrining taraqqiyoti masalasi yosh shoir Rustam Mirvohid ijodi misolida tadqiq qilingan. Shoir g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: G‘azal, poetik nutq, ritm, qofiya, termin.

G‘azal shoirning badiiy tafakkuri mahsuli hisoblanadi. Chunki ushbu janrda yozilgan she‘rlar boshqa janrda yozilgan she‘rlarga nisbatan birmuncha murakkab. Ayniqsa, hozirgi adabiy jarayonda mumtoz adabiyotning boshqa janrlari singari g‘azal janri ham noyob janrga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham g‘azal janrini har tomonlama tahlil qilish, xususan, poetik nutqini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Zero, adabiyotning asosiy materiali bo‘lmish so‘zdan boshqa adabiy turlarga nisbatan lirik turda, ayniqsa, g‘azalda mohirona foydalanish talab etiladi.

G‘azalning til xususiyatlarini o‘rganar ekanmiz, adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovning “Adabiyot tildan boshlanadi” degan maqolasida keltirilgan fikrlarga yuzlanishimiz o‘rinli: “Rangsiz tasviriy san‘at, ohangsiz musiqa bo‘lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo‘lmaydi”.¹ Quyida Rustam Mirvohid g‘azallarining til xususiyatlarini tahlil qilamiz. Biz badiiy nutq haqida mulohaza yuritish jarayonida stilistik metoddan foydalanamiz. Chunki adabiyot ilmining uni o‘rganuvchi bo‘limi stilistika deb ataladi.²

Yosh shoirlar she‘riyatining badiiy nutqi boshqa davrlardagi adabiy asar tilidan farq qiladi. Hatto bu holat mumtoz janrlarda Qalam tebratayotgan ijodkorlar ijodida ham yaqqol bilinadi. Bu ham hozirgi adabiy jarayonga xos xususiyatlardan hisoblanadi. Masalan: Rustam Mirvohidning “Keldi mish-mish ishq lof deb e‘tiroz aylar ko‘zing”³ misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalini olaylik. To‘rtinchi, beshinchi va oltinchi baytlardagi radifdan oldin kelgan “Imtiyoz”, “Ixtisos”, “Inqiroz” so‘zlari, shuningdek, oltinchi baytdagi “Jahoniy iqtisodiy” so‘z birikmalari muloqotimizda ko‘p ishlatiladigan leksikalar hisoblanadi. Shu bilan birga shoirning bir nechta g‘azallarida ham bu holatni kuzatishimiz mumkin. Uning “Mashrabona” g‘azalining oxirgi baytida kelgan so‘zlar ham zamonaviy hayotimizdagi so‘zlar hisoblanadi. “Tayyoragoh etmish Rustaming, bil ko‘ksini, chiqsang tayyorlarga”⁴ baytidagi “Tayyoragoh, tayyora” leksemalari Xx asrdan boshlab nutqimizga rus tilidagi “Аэропорт”, “самалёт” so‘zlari orqali o‘zlashgan. Keyinchalik o‘z tilimizdagi muqobili shoir, yozuvchilar tomonidan badiiy asarlarda qo‘llana boshlandi. Shoirning 2023-yilda yozilgan yana bir “Ko‘ngil, sardaftaring ochma, hama bir-bir varaqlaydur”⁵ misrasi bilan boshlanadigan g‘azalining yettinchi baytida ham adabiyotshunoslikka “Izm” qo‘shimchasi bilan o‘zlashgan “Modernizm”, “Post modernizm”, “Futurizm”, “Naturalizm” kabi terminlar

¹ Ozod Sharafiddinov. “Adabiyot tildan boshlanadi” “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi 1986-yil, 5-sentabr.

² Dilmurod Quronov. “Adabiyot nazariyasi asoslari” T: “Akadem nashr” 2018-yil, 240-b.

³ Rustam Mirvohid. “Seningdirman” T: “Adabiyot” nashriyoti 2023-yil, 80-b.

⁴ [Hhttps://t.me/Rustam_MIRVOKHID](https://t.me/Rustam_MIRVOKHID) ijodi telegram kanali.

⁵ [Hhttps://t.me/Rustam_MIRVOKHID](https://t.me/Rustam_MIRVOKHID) ijodi telegram kanali.

nomiga, shuningdek, 2022-yilda bir nechta yosh ijodkorlarning mualliflik kitoblari “Akadem nashr” va yoshlar ishlari agentligi tomonidan “Izlam” rukni ostida chop etilgan kitoblarga ishora bor: “Hama “...izm”-u vayo “Izlam” menga manzur, biroq avval dilim Devona etgan ul devonlarni quchoqlaydur”. “Izm” qo‘shimchasi bilan o‘zlashgan terminlarga ishora qilishidan shoirning yana bir maqsadi mumtoz adabiyotdagi janrlar zamonaviy vazn, oqim va janrlar gultoji ekanini va sharq adabiyotining asosi, ya’ni poydevori ekanini ko‘rsatish bo‘lgan. Uning g‘azallaridan, ayniqsa, ikkitasi badiiy nutqning ayrim usullari yangilanganini, yangi leksikalar yaratilganini ko‘rsatadi.⁶ G‘azallarda bugungi kunda nutqimizda faol qo‘llanayotgan turli sohadagi terminlar aks etgan bo‘lib, ulardan shoir badiiy maqsadi yo‘lida foydalangan U so‘z qo‘llashda normadan og‘ishda aniq badiiy estetik maqsadni ko‘zda tutganini, ya’ni bunda atayinlik momenti ustuvorligini ta’kidlash zarur. Ayni shu jihat uni, ya’ni o‘sha so‘zlarni shunchaki “Xato”dan farqlaydi. Normadan og‘ishdagi badiiy estetik maqsadlar umumlashmasidagi davr ruhini aks ettirish va personaj nutqini individuallashtirish⁷ kabi omillarga shoir g‘azallarida qo‘llanilgan quyidagi terminlar muvofiq keladi. G‘azalning “Karantin g‘azali” deb nomlanishi va unda keltirilgan terminlar g‘azal yozilgan davrdagi ruhiyatni garchi hazilomuz sevgi izhori yo‘li bilan bo‘lsa-da yaqqol aks ettirgan. Keltirilgan so‘zlarga e’tibor beraylik: “Karantin”, “Koronaday”, “Niqob”, “Omikron”, “Vabo”, “Emlatmayin” kabilar. Bundan tashqari, g‘azalning uchinchi bayti: “Dam soching atrini qumsab, dam labing hijronida ta’mu hid bilmak yo‘qoldi aqlu dil hayronaday”, beshinchi bayti: “Shul sabab butkul shifoyi vasling istab uy aro ko‘z eshikday muntazir, dil intizor ostonaday”⁸ singarilarda 2020-yil butun insoniyatga kelgan vabo “Korona virusi” davrida kundalik muloqot so‘zlari va holatlari yorqin ifodalangan. Vabo yuqqanidan keyin tana harorati ko‘tarilishi, va vaboning asosiy belgisi bo‘lgan tam va hid yo‘qolishi, shuningdek, “Uyda qoling” Shiori ostida barchaning karantin munosabati bilan uyda qolishi. G‘azalning yozilgan vaqtiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u 2022-yil yozilgan. Bu vaqtga kelib esa karantin yakunlangan edi. Aynan bu terminlarni mumtoz janrga kiritilishi birinchidan shoirning o‘ziga xos kashfiyoti, ikkinchidan ushbu og‘ir sinovning og‘ir o‘tganini hazil yo‘li bilan ifodalashi hisoblanadi. Zero, neologizmlar, asosan, zamonaviy mavzudagi asarlarda ishlatiladi. Fan-texnika, ijtimoiy hayot taraqqiyoti tufayli paydo bo‘lgan yangi so‘z, atama, terminlar davr ruhini aks ettirish maqsadida badiiy asarlarda qo‘llanadi.⁹

Rustam Mirvohidning bu kabi neologizm terminlar ishtirokida yozgan she’ru g‘azallari shulardangina iborat emas. Uning “Dilu jonim ila jono, senga migratsiya qilsam”¹⁰ misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali ham yangilanib va boyib borayotgan poetik nutq mahsuli sanaladi. Qofiya uchun tanlangan so‘zlarga e’tibor qaratsak: “Migratsiya”, “Sensatsiya”, “Ratsiya”, “Aksiya”, “Natsiya”, “Sanksiya” kabilar hali g‘azal janriga kiritilmagan neologizmlar hisoblanadi. Yuqoridagi g‘azallarning barchasida nutq boyligimizga yillar davomida o‘zlashib kelayotgan so‘zlardan foydalanilgan. Birinchi g‘azaldagi “Ixtisos”, “Iqtisod”, “Inqiroz” so‘zlari garchi mumtoz g‘azallarda uchramasa-da nutqimizga allaqachon singib ulgurgan leksemalar hisoblanadi. Ammo keyingi g‘azallardagi so‘zlar Xx asr, ayniqsa, Xxi asrlarda juda tez suratlarida nutqimizga o‘rnashayotgan so‘zlardir. Zamonaviy so‘zlarni g‘azalga, umuman, she’riyatga olib kirilishi bugungi kitobxonni ham befarq qoldirmaydi. Shu orqali kitobxonni g‘azalga, mumtoz janrlarni o‘rganishga qiziqtirish mumkin. Zero, shiddat bilan axborot rivojlanib borayotgan shunday vaqtda adabiyotga ham yangicha yondashuv va shu orqali she’rxonlar safini kengaytirish ayni muddao. Shoirning qilgan kashfiyotini bu yo‘ldagi yangi metod deyishimiz mumkin. Yana bir savol paydo bo‘lishi tabiiy. “Nahotki, zamonaviy terminlarni ham vaznga tushirish mumkin bo‘lsa?” Shubhasiz, shoir bu jihatga ham qat’iy e’tibor qilgan.

Rustam Mirvohid g‘azallarining til xususiyatlari faqatgina neologizmlardagina namoyon bo‘lmaydi. Shu bilan birga uning yuqoridagi g‘azallarida “Xususiy muallif ko‘chimlari” neologizmlardan hosil bo‘lgan holda

⁶ “Hozirgi adabiy jarayon” Andijon 2012-yil 7-b.

⁷ Dilmurod Quronov. “Adabiyot nazariyasi asoslari” T: “Akadem nashr” 2018-yil 261-262-b.

⁸ [Hhttps://t.me/Rustam_MIRVOKHID](https://t.me/Rustam_MIRVOKHID) ijodi telegram kanali.

⁹ Abdulla Ulug‘ov. “Adabiyotshunoslik nazariyasi” T: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti 2018-yil 125-b.

¹⁰ Rustam Mirvohid. “Seningdirman” T: “Adabiyot” nashriyoti 2023-yil 97-b.

mavjud. Badiiy estetik funksiyadorligi, tasviriylik va ifodaviylikni kuchaytirishi jihatidan shu gʻazallar matni oʻramidagina koʻchma maʼno kasb etadi. “Qilsam” radifli gʻazalidagi har bir termin koʻchma maʼnoda qoʻllangan. Birinchi va oxirgi baytlardagi “Senga migratsiya qilsam”, ikkinchi baytdagi “Samoni ratsiya qilsam”, uchinchi baytdagi “Muhabbat marketi ichra yurakni aksiya qilsam” kabilar, shuningdek, “Karantin gʻazali”dagi terminlar ham xuddi shu vazifada keladi. Xususan, birinchi baytdagi “Qoyiley, ishqing jahonni oldiku koronaday”, beshinchi baytdagi “Koʻz eshikday muntazir, dil intizor ostonaday” singari koʻchimlar shoirning assotsiativ fikrlashi mahsuli hisoblanadi.¹¹ Rustam Mirvohid gʻazallarida poetik sintaksisning intonatsiya, parallelizm, inversiya va ritorik murojaat kabi ifoda usullari mavjud.

Maʼlumki, lirik asarlarning asosiy omillaridan biri intonatsiyadir. Ayniqsa, bu vosita gʻazallarda muhim ahamiyatga ega. Zero, tinish belgilari va misralarning tartibma-tartib joylashuvi, shuningdek, qofiyalarning toʻqligi ohangdorlikni, yaʼni intonatsiyani bildiradi. Shu boisdan shoirning har bir gʻazalini intonatsion jihatdan tahlilga tortishga hojat yoʻq. Uning gazallarida parallelizm- ikki yoki undan ortiq narsa-hodisani yonma-yon joylashtirish orqali mazmuni yorqinlashtirish usuli, yaʼni radiflar mavjud. Radiflar ham parallelizmning oʻziga xos koʻrinishidir.¹² Shoirning aksariyat gʻazallarida qofiyadan keyin radif keladi. “Nigor”, “Koʻzing”, “Bormoqdadir”, “Shomu sham”, “Ayni dam”, “Sanga”, “Boq”, “Qilsam”, “Qarshimiz”, “Toʻlmishdir”, “Kerak”, “Oʻzim”, “Harir”, :Ishq:, “Koʻngil oxir”, “Xazon”, “Kecha” radiflari har baytda takrorlanib kelib oʻxshash, bir-biriga yaqin holatlarni ifodalaydi. Masalan: “Ruh qamishdir puflading ul naylanib bormoqdadir, dil uzumdir ezding ul ham maylanib bormoqdadir” baytidagi bormoqdadir soʻzi

radif vazifasini bajarmoqda va ikki misradagi holatni ham bir-biriga yaqin ekanini koʻrsatmoqda. Keyingi bayt radifdan avval kelayotgan fikrlarni qanchalik oʻxshashligini ochiq bayon qiladi: “Bul nayu mayli majolisun nafaosda pari, koʻzlaring noʻsh ayladim bosh aylanib bormoqdadir” tarzida. “Toʻlmishdir” radifli gʻazalning radifi aynan paralelizm vazifasida keladi. Gʻazalning birinchi va ikkinchi baytlaridayoq fikrimiz oydinlashadi: “Bihamdullohki, ushbu oy yoshing oʻttizga toʻlmishdir, mufarrah yoshlarim qalqib labo-lab koʻzga toʻlmishdir. Seni koʻrgan zahotimda shuurim inqilob tuydi, oʻshal ondin beri qalbim musahhar hisga toʻlmishdir”.¹³ Har bir baytda kelgan fikrlar “Toʻlmoq” feʼli bilan ifodalanishi zarur boʻlgan holatlar boʻlib, ularning hammasi bir-birini toʻldiruvchi hisoblanadi.

Inversiya hodisasi, tabiiyki, lirik janrga xos xususiyatdir. Biz oʻrganayotgan gʻazallar ham inversiya hodisasi asosida qurilgan. Shuning uchun ayni tahlilimizda inversiya ifoda usulini ham sinchiklab oʻrganish shart emas, nazarimda. Shoir gʻazallarida ritorik murojaat ifoda usuli faol tarzda namoyon boʻladi. Ritorik murojaatda ritorik soʻroqda boʻlganidek javob talab qilinmaydi. Aksincha, obyektga eʼtiborni kuchaytiradi va kitobxonda biror munosabatni uygʻotadi. Shoirning “Qilsam”, “Kecha”, “Ayni dam”, “Sanga” radifli va “Mashrabona”, “Eshit ey yor dilim sozi chaman boʻylab jaranglaydir” misrasi bilan boshlanuvchi gʻazallarida ritorik murojaatni uchratamiz. Ular, asosan, birinchi baytning birinchi misrasida keladi: “Mehru mohim, sayr etaylik ayni dam oydin kecha, ming shukurkim seni topdim necha qir loydin kecha”, “Ey muqallibal qulub, qalbimni qil qoniy sanga, jon nisor, borim tasadduq boʻlsa kim tobe sanga”, “Dilu jonim ila jono, senga migratsiya qilsam, koʻchib bu nav hama ushshoq aro sensatsiya qilsam”, “Keldi umring yozi shoir, yoz gʻazallar ayni dam, kim senga ruhiy gʻizodir soz gʻazallar ayni dam”,¹⁴ “Eshit ey yor, dilim sozi chaman boʻylab jaranglaydir, qoʻshildi bulbul ovozi hamohanglikda yangraydir”,¹⁵ “Kel, chora ayla bechoralarga, hajringda chashmi sharroralarga”.¹⁶ Keltirilgan

¹¹ Dilmurod Quronov. “Adabiyot nazariyasi asoslari” T: “Akadem nashr” 2018-yil 275-b.

¹² Abdulla Ulugʻov. “Adabiyotshunoslik nazariyasi” T: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti 2018-yil 129-b.

¹³ Rustam Mirvohid. “Seningdirman” T: “Adabiyot” nashriyoti 2023-yil 84-95-b.

¹⁴ Rustam Mirvohid. “Seningdirman” T: “Adabiyot” nashriyoti 2023-yil 79-88-90-97-b.

¹⁵ Rustam Mirvohid. “Bu- oshiq soʻzim” T: “Adib” nashriyoti 2012-yil 9-b.

¹⁶ Hhttps://t.mi/Rustam_MIRVOKHID ijodi telegram kanali.

birinchi, ikkinchi, uchinchi va beshinchi baytlardagi murojaat birliklari ikkinchi shaxsning e'tiborini tortishga, shu bilan birga murojaat qiluvchining muxotabga subyektiv munosabatini bildirishga xizmat qilmoqda.¹⁷To'rtinchi baytda esa ritorik murojaat lirik qahramonning o'ziga qaratilmoqda va bu murojaatda ham izohga o'rin qolmagan. Keltirilgan baytlarning oxirigisida esa muxotab yashirin holda mavjud. Misra boshidagi "Kel" so'zidan ma'lumki, lirik qahramon murojaat qiluvchi sifatida namoyon bo'lmoqda, ya'ni bayt "Ey sen kel" tarzida tushunilmoqda. Xuddi shunga o'xshash holat beshinchi baytda ham kuzatiladi. Ya'ni, "Dilu jonim ila jono" birikmasi "Dilu jonim ila ey jono" tarzida tushuniladi. Umuman olganda keltirilgan misollarda lirik qahramonning badiiy maqsadi aniq ko'rinib turibdi. To'rtinchi baytdan tashqari hamma baytda murojaat qilinuvchiga nisbatan iltimos, muloyimlik ohanglari hamda uning e'tiborini tortish munosabatlari aks etgan bo'lib, beshinchi baytda lirik qahramonning o'ziga qaratilgan undalma ohanggi mavjud. Shoir ijodidagi yana bir jihatni alohida ta'kidlash joizki, u biz odatda foydalanadigan so'zlarimizni boshqacha shaklda ham qo'llay oladi. Masalan: "Zulfu husning yodga tushsa yodlanarmish shomu sham"¹⁸ misrasi bilan boshlanuvchi g'azalining ikkinchi baytidagi "Rashshokligim" so'zi rashkchi so'zining ko'rinishidan biri sifatida namoyon bo'ladi. O'z ijodida yangiliklarga intiladigan shoir "Rashshok" so'zini emotsional bo'yoq bergan holda ilk bor ushbu g'azalida qo'llashga jazm etgan. Xuddi shu g'azalning radifi bo'lmish "Shomu sham" so'zi ham shoir badiiy tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Ya'ni, shom qorong'u tushish paytini, oqshomni bildiradi. Sham esa chiroqdan avvalgi hozir ham iste'moldan qolmagan yoritish vositasi hisoblanadi. Shu ikki so'zning bog'lanishi orqali g'azalning poetik nutqi boyigan. Hamda "Shom" va "Sham" so'zlari o'zaro ohangdosh bo'lib, g'azalning musiqiylikini ta'minlagan. Bu esa shoir lirikasidagi o'ziga xos badiiy hodisa hisoblanadi. Rustam Mirvohid g'azallaridagi barcha omillar: musiqiylik, ritm, badiiy nutq singarilar chinakam lirik she'r sifatida tinglovchi, o'qirmanga faqat zavq beribgina qolmay uning emotsional tafakkuri va ma'naviy-axloqiy quvvatini uyg'otib, faoliyatga undaydi.¹⁹ Shoir g'azallarining badiiy nutqiga xos xususiyatlar faqatgina tahlilda keltirilganlardangina iborat emas. Uning g'azallaridagi ko'pgina xususiyatlar badiiy san'atlar orqali o'rganilganda yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Zero, mumtoz janr bo'lmish g'azal badiiyatidagi istiora, tashbih kabi o'xshatish va ko'chim turlari, zamonaviy adabiyotshunoslikdagi trop, metafora, metonimiya, sinekdoxa, allegoriya singari ko'chimlar ham poetik nutqning omillaridan sanaladi. Biroq biz ushbu omillarni g'azallarning badiiyatini tahlil qilish jarayonida o'rganishni o'rinli deb bildik.

¹⁷ Ma'rufjon Yo'ldoshev. "Badiiy matnning lisoniy tahlili" T: 2008-yil 19-b.

¹⁸ Rustam Mirvohid. "Seningdirman" T: "Adabiyot" nashriyoti 2023-yil 85-b.

¹⁹ Qozoqboy Yo'ldoshev. Muhayyo Yo'ldosheva. "Badiiy tahlil asoslari" T: 2016-yil 123-b.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rustam Mirvohid. “Seningdirman” “Adabiyot” nashriyoti T: 2023-yil.
2. Rustam Mirvohid. “Bu- oshiq so‘zim” “Adib” nashriyoti T: 2012-yil.
3. Hhttps://t.mi/Rustam_MIRVOKHID ijodi telegram kanali.
4. Ozod Sharafiddinov. “Adabiyot tildan boshlanadi” “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi 1986-yil, 5-sentabr.
5. Dilmurod Quronov. “Adabiyot nazariyasi asoslari” “Akadem nashr” T: 2018-yil.
6. “Hozirgi adabiy jarayon” Andijon 2012-yil.
7. Abdulla ulug‘ov. “Adabiyotshunoslik nazariyasi” T: G‘ afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti 2018-yil.
8. Ma‘rufjon Yo‘ldoshev. “Badiiy matnning lisoniy tahlili” T: 2008-yil.
9. Qozoqboy Yo‘ldoshev. Muhayyo Yo‘ldosheva. “Badiiy tahlil asoslari” T: 2016-yil.